

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MASOFAVIY, ONLAYN, RAQAMLI VA ARALASH TA'LIM TUSHUNCHALARINING TERMINOLOGIK HAMDA DISKURSIV TALQINI

Abdurashidova Xurshida Baxtiyor qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali, o'qituvchi.

e-mail: abdurashidovaxurshida5@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5962-8233>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik, sotsiolingvistika, kiberlingvistika hamda kompyuter vositachiligidagi muloqot diskursining eng ommalashgan konseptual yo'nalishlaridan biri — masofaviy ta'lim va uning transformatsion shakllarini ifodalovchi terminologik tizim ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy-diskursiv hamda kognitiv aspektida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida "distance education", "online education", "digital education", "e-learning", "blended learning", "hybrid learning" hamda "synchronous/asynchronous learning" tushunchalarining semantik maydonlari o'rganilgan bo'lib, ularning lingvistik tabiati, ierarxik tizimi, konseptual chegaralari va tillararo korrelyatsiyasi milliy va xalqaro tilshunoslik maktablarining so'nggi yutuqlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, kibernakonda yuzaga kelayotgan lisoniy tejamkorlik va strukturalarning qisqarishi, shuningdek, raqamli diskursning mega-, makro- va mikrotuzilmalardan iborat bosqichma-bosqich ixtisoslashuvi aniq misollar yordamida yoritilgan. Tadqiqot natijalari o'zbek tili terminologik tizimini me'yorlashtirish va kibernak muhit birliklarini standartlashtirish jarayonlarini asoslaydi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, onlayn diskurs, raqamli terminologiya, elektron ta'lim, aralash ta'lim, gibrid model, sinxron lison, asinxron kommunikatsiya, kiberlug'at, ellipsis, lingvistik tejamkorlik, kogeziya, terminologik assimetriya, lakunadorlik, konseptual korrelyatsiya.

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ И ДИСКУРСИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ ДИСТАНЦИОННОГО, ОНЛАЙН-, ЦИФРОВОГО И СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Абдурашидова Хуршида Бахтиёр кизи

Андижанский филиал Кокандского университета, преподаватель.

Аннотация.

В статье на материале английского и узбекского языков в сравнительно-дискурсивном и когнитивном аспектах исследуется терминологическая система, обозначающая дистанционное образование и его трансформационные формы — одно из наиболее распространённых концептуальных направлений современной сравнительно-сопоставительной лингвистики, социолингвистики, киберлингвистики и дискурса компьютерно-опосредованной коммуникации. В ходе исследования изучены семантические поля понятий "distance education", "online education", "digital education", "e-learning", "blended learning", "hybrid learning" и "synchronous/asynchronous learning"; на основе современных достижений национальных и зарубежных лингвистических школ проанализированы их языковая природа, иерархическая система, концептуальные границы и межъязыковая корреляция. Кроме того, на конкретных примерах раскрываются языковая экономия и сокращение структур, возникающие в киберпространстве, а также поэтапная специализация цифрового дискурса, включающая мега-, макро- и микроструктуры. Результаты исследования обосновывают необходимость нормализации терминологической системы узбекского языка и стандартизации единиц киберсреды.

Ключевые слова: дистанционное образование, онлайн-дискурс, цифровая терминология, электронное обучение, смешанное обучение, гибридная модель, синхронная речь, асинхронная коммуникация, киберлексикон, эллипсис, языковая экономия, когезия, терминологическая асимметрия, лакунарность, концептуальная корреляция.

TERMINOLOGICAL AND DISCURSIVE INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF DISTANCE, ONLINE, DIGITAL, AND BLENDED LEARNING

Abdurashidova Xurshida Baxtiyor qizi

Andijan Branch of Kokand University, Lecturer.

Abstract.

This article examines, from comparative-discursive and cognitive perspectives, the terminological system representing distance education and its transformational forms in English and Uzbek, one of the prominent conceptual areas of contemporary comparative linguistics, sociolinguistics, cyberlinguistics, and computer-mediated communication discourse. The study explores the semantic fields of "distance education," "online education," "digital education," "e-learning," "blended learning," "hybrid learning," and "synchronous/asynchronous learning." Their linguistic nature, hierarchical organization, conceptual boundaries, and cross-linguistic correlations are analyzed in light of recent developments in national and international linguistic scholarship. The article also illustrates linguistic economy and structural reduction in cyberspace, as well as the gradual specialization of digital discourse into mega-, macro-, and microstructures through specific examples. The findings provide a basis for normalizing the terminological system of the Uzbek language and standardizing linguistic units used in the cyber environment.

Keywords: distance education, online discourse, digital terminology, e-learning, blended learning, hybrid model, synchronous language, asynchronous communication, cyberlexicon, ellipsis, linguistic economy, cohesion, terminological asymmetry, lexical gaps, conceptual correlation.

Kirish. Til tizimining bugungi bosqichi global axborotlashuv, raqamli iqtisodiyot va kiber-ijtimoiy munosabatlarning shiddatli integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. XXI asrning birinchi choragida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi insoniyat ijtimoiy borlig'ining barcha sohalariga qatori akademik ta'lim makonini ham tub modifikatsiyaga uchratdi. An'anaviy chiziqli, monologik va bir tomonlama auditoriya ta'lim modelidan virtual-multimodal, tarmoqli va interaktiv ta'lim paradigmalariga o'tilishi til tizimida, xususan, uning leksik-semantik sathida yangi neologizmlar, substandart qatamlar va murakkab terminologik sistemalarning shakllanishini hayotiy zaruratga aylantirdi [2, b. 45]. Bugungi kunda tilshunoslik fanining mustaqil yo'nalishlari sifatida rivojlanayotgan kiberlingvistika (*cyberlinguistics*), kompyuter vositachiligidagi tilshunoslik (*computer-mediated linguistics*) va internet diskurs tahlili (*internet discourse analysis*) yo'nalishlarida masofaviy ta'lim muhitining o'ziga xos terminologik ko'rsatkichlarini tizimlashtirish, ularning lisoniy va pragmatik tabiatini ochib berish markaziy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Har qanday til xalqaro konseptual maydonda yuzaga keladigan ijtimoiy-texnik o'zgarishlarni, fan-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan yangi tushunchalarni o'zining ichki qonuniyatlari, morfologik, sintaktik va semantik imkoniyatlari asosida aks ettiradi. Ma'lumki, ingliz tili global raqamli infratuzilma, dasturiy ta'minot va global internet tarmoqlarining asosiy manba tili bo'lganligi sababli, masofaviy ta'lim terminologiyasining fundamental yadrosi ham aynan shu tilda shakllandi va tizimlashdi [1, b. 12]. O'zbek tilshunosligida esa mazkur tizimlarni o'rganish va milliy til zaminida tadqiq etish substandart va kiber-makon leksikasining diskursiv hamda pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish bilan bog'liq holda rivojlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'lim diskursi va virtual makon terminologiyasining lisoniy tabiati jahon va o'zbek tilshunosligida turli mezonlar asosida o'rganib kelinmoqda. Xususan, G'arb tilshunosligida kompyuter vositachiligidagi diskurs va kiberleksikaning shakllanish qonuniyatlari D. Crystal, S.C. Herring, G. Stockwell [11] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, ta'limiy konseptlarning pedagogik-tizimli tabiati M.G. Moore va G. Kearsley [7] ishlarida ochib berilgan.

O'zbek tilshunosligida terminologik tizimlarning shakllanishi va kiber-makon leksikasining tadqiqi esa tilshunos olimlar H. Dadaboyev [3] hamda Z. Sodiqov [10] asarlarida o'z aksini topgan. Raqamli va virtual muhit birliklarining lingvopragmatik, sotsiolingvistik va leksikografik xususiyatlari, shuningdek, raqamli diskursning mega-, makro- va mikrotuzilmalardan iborat ierarxik tabiati tilshunos olimi D.N. Satimova [11] tomonidan tizimli ravishda tadqiq etilgan. Virtual muloqot tizimlari va elektron o'quv platformalarida axborot uzatish tezligi hamda vaqt tejamlorligi sababli yuzaga keladigan lisoniy qisqarishlar, gap bo'laklari va so'zlarning tushib qolishi bilan bog'liq kogeziya hamda ellipsis hodisalarining kontrastiv xususiyatlari esa N.V. Ashurovaning [14] ilmiy tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Masofaviy ta'lim va uning yangi shakllangan ko'rinishlarini ifodalovchi terminologik tizimni chog'ishtirma-semantik tahlil qilish jarayonida har ikki tilda ushbu birliklarning konseptual hajmi va diskursiv xususiyatlarida ma'lum darajada farqlar mavjudligi aniqlandi. Ingliz tili diskursida *distance education* yoki *distance learning* makrotizimli, giperonimik xarakterga ega terminlar hisoblanadi. Ularning lisoniy tabiati va semantik asosi tarixan axborot texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrlarga, ya'ni pochta, radio va televideniye orqali uzoq masofadan amalga oshirilgan sirdan o'qitish shakllariga borib taqaladi [7, b. 32].

O'zbek tilshunosligida sohaviy atamalar tizimini shakllantirish muammolarini tadqiq etgan professor H. Dadaboyev o'zining "O'zbek terminologiyasi" asarida alohida ta'kidlaganidek, fanning muayyan tarmog'iga oid atamalarning tartibga solinishi va barqarorlashuvi bevosita milliy tilning ichki so'z yasash imkoniyatlaridan foydalanish hamda chet tilidagi modellarni elementma-element nusxa ko'chirish qonuniyatlariga tayanadi [3, b. 84].

N.M. Mahmudovning til iqtisodiyoti tamoyillariga oid qarashlariga tayanib aytadigan bo'lsak, ingliz tilidagi ushbu terminologik variantlilik (*distance education* va *distance learning*) shunchaki sinonimik hodisa bo'lmay, ularning har biri alohida diskursiv vazifani bajaradi. Ya'ni, *distance education* ko'proq ma'muriy va tashkiliy shaklni anglatrsa, *distance learning* bevosita ta'lim oluvchining shaxsiy kognitiv-aksiologik faoliyatiga yo'naltiriladi [7, b. 35]. O'zbek akademik

nutqida esa bu ikki holat bitta — “masofaviy ta’lim” termini ostida umumlashtiriladi, bu esa o’zbek tili terminologik tizimida faol diskursiv farqlash jarayoni hali to’liq yakunlanmaganligini ko’rsatadi.

Online education termini tarkibidagi *online* komponenti muloqotning “global internet tarmog’iga ulanganlik” va tarmoq rejimida faoliyat yuritish mezonini mutlaq shart qilib qo’yadi [2, b. 48]. O’zbek tili diskursida “onlayn ta’lim” birligi bugungi kunda rasmiy, ya’ni akademik uslubda muhim ahamiyat kasb etadi [10, b. 42]. Biroq uning jonli muloqotdagi diskursiv talqini ko’pincha tor ma’noda — faqat sinxron interaktivlikni, ya’ni Zoom platformasidagi jonli videoma’ruzalarni ifodalash uchun cheklangan holda qo’llanilmoqda. Ingliz tilida esa bu termin internet orqali amalga oshiriladigan asinxron kurslarga nisbatan ham to’liq qo’llaniladi [1, b. 5].

Digital education tushunchasi esa masofaviy va onlayn ta’lim tushunchalarini o’z ichiga oluvchi eng yirik lingvistik qatlam hisoblanadi. Tilshunos olim D.N. Satimovning raqamli kommunikatsiya tizimlarining makrotuzilmalari haqidagi konsepsiyasiga muvofiq, bu yerda asosiy lisoniy va konseptual urg’u muloqot makoniga emas, balki axborotning uzatilish va qayta ishlanish formatiga — “raqamli kod va aqlli texnologiyalar” tizimiga qaratiladi [11, b. 22]. Raqamli ta’lim an’anaviy jismoniy auditoriya ichida ham raqamli doskalar yoki sun’iy intellekt tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkin. O’zbek tilida “raqamli ta’lim” terminologik birikmasi asosan strategik makrohujjatlar diskursida (“Raqamli O’zbekiston — 2030”) faol qo’llaniladi va ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini anglatadi.

E-learning (electronic learning) tushunchasi esa qisqartma atamalar guruhiga kirib, uning semantik qatlamini har qanday elektron axborot vositalari (CD-ROM, kompyuter dasturlari, lokal tarmoqlar) yordamida o’qitish tashkil etadi [8, b. 18]. O’zbek tilida “elektron ta’lim” ikki komponentli terminologik birikma shaklida namoyon bo’ladi va asosan elektron darsliklar hamda LMS (*Learning Management System*) tizimidagi statik o’quv resurslari diskursini ifodalashga xizmat qiladi [10, b. 45].

Natijada, muloqot shakllarining birlashuvi orqali yuzaga kelgan *blended learning* (aralash ta’lim) va *hybrid learning* (gibrid ta’lim) tushunchalarining lisoniy va funksional chegaralarini farqlash lozim. Bizning semantik va diskursiv tahlilimiz ularning konseptual farqlarini quyidagi differensial mezonlar asosida belgilashga imkon berdi:

Jadval 1. Masofaviy ta’lim turlarining differensial-lisoniy mezonlari va konseptual chegaralari

Lisoniy mezonlar	Blended learning (Aralash ta’lim)	Hybrid learning (Gibrid ta’lim)
Konseptual yadrosi	An’anaviy yuzma-yuz ta’lim bilan asinxron onlayn komponentlarning tizimli sintezi [4, b.95].	Bir vaqtning o’zida ham auditoriyadagi, ham masofadagi onlayn talabalarga dars o’tish shakli [13, b.104].
Vaqt o’lchami	Asosan asinxron komponentlar (platformadagi topshiriqlar) ustunlik qiladi [4, b.98].	Mutloq sinxron multimodal kommunikatsiyaga tayanadi [13, b.108].
O’zbek tilidagi ma’nosi	So’zma-so’z ko’chirish orqali me’yorlashgan birikma	bevosita leksik o’zlashma bo’lib, yangi lingvistik reallikni ifodalaydi
Muloqot shakli	Talabalar jamoasi birgalikda ma’lumotlarni almashtiradi	Talabalar jamoasi jismoniy va virtual guruhlariga ajralgan bo’ladi
Lisoniy qisqaruv (Ellipsis)	Kamroq kuzatiladi, yozma ko’rsatmalar kengaytirilgan bo’ladi.	Yuqori darajada, tezkor interfeys buyruqlari sabab ellipsis faollashadi [14, b.55].
Kiber-makon ierarxiyasi	Mikrotuzilma xarakteriga ega, dars rejasi tarkibida ifodalanadi [11, b.18].	Makrotuzilma xarakteriga ega, texnik infratuzilma bilan belgilanadi.

Jadval tahlilidan ko’rinadiki, *blended learning* diskursida talaba auditoriyadan tashqarida, o’zi xohlagan vaqtda platformaga kirib, topshiriq bajaradi [12, b. 5]. *Hybrid learning* diskursida esa o’qituvchi multimodal auditoriyada turib, ham qarshisidagi talabalar, ham ekrandagi masofaviy talabalar bilan real vaqtda bir xil muloqot olib boradi. Tilshunos olim N.V. Ashurova konsepsiyasiga ko’ra, gibrid muloqot muhitida “nutqiy ellipsis” keskin ortadi, chunki o’qituvchi ikki auditoriyani bir vaqtda boshqarish jarayonida grammatik jihatdan to’liq gaplar o’rniga qisqartirilgan buyruqlar va interfeys elementlaridan faol foydalanishga majbur bo’ladi [14, b. 58].

Shuningdek, masofaviy ta’lim diskursida vaqt determinanti (*temporal factor*) til birliklarining funksional-uslubiy xususiyatlarini belgilovchi eng asosiy lisoniy omildir. O’zbek tilshunosi D.N. Satimova o’z tadqiqotlarida kiber-makondagi lisoniy birliklarning faollashuvini aynan vaqt omili va kommunikantlarning virtual reallikda bo’lish darajasi bilan bog’laydi [11, b. 22]. Shu asosda tizimda qat’iy antonimik va oppozitsion munosabatga ega bo’lgan ikki fundamental termin shakllangan:

1. **Synchronous learning (sinxron ta'lim):** virtual muloqot ishtirokchilarining aynan bir vaqtda, real vaqt rejimida (*in real time*) yagona muloqot maydonida bo'lishi [14, b. 51]. Uning lisoniy xususiyati tezkor replikalar, og'zaki nutq elementlari, qisqa dialogik savol-javoblar, lisoniy tejamkorlik va interfeys buyruqlarining yuqori darajadagi faolligi bilan xarakterlanadi.


2. **Asynchronous learning (asinxron ta'lim):** muloqot ishtirokchilarining vaqt jihatidan turlicha, kechiktirilgan aloqa rejimida (*delayed communication*) o'zaro munosabatda bo'lishi [14, b. 53]. Uning lisoniy xususiyati kengaytirilgan yozma matnlar, rasmiy-akademik uslub, batafsil monologik sharhlar, mantiqiy kogeziya va grammatik jihatdan to'liq shakllangan ko'rsatmalarining ustunligi bilan xarakterlanadi. Ingliz va o'zbek tillarida ushbu terminlar xalqaro yunoncha-lotinch o'zaklar (*synchronous / asynchronous*) va ularning o'zbekcha fonetik-morfologik moslashuvi (*sinxron / asinxron*) darajasida to'liq semantik va strukturaviy ekvivalentlikni namoyish etadi [15, b. 18].

Olingan chog'ishtirma-semantik va strukturaviy natijalar masofaviy ta'lim tushunchasining ingliz va o'zbek tillarida turli lingvistik rivojlanish yo'llari hamda sotsiolingvistik omillar asosida yuzaga chiqayotganligini ko'rsatadi.

Misol uchun: ilmiy diskursda *distance learning* tushunchasi uchun o'zbek tilida *masofaviy o'qitish* (jarayon-metodik aspekt), *masofaviy ta'lim* (institutSIONAL-tizimli aspekt) va *masofaviy o'rganish* (individual-kognitiv aspekt) variantlari parallel ravishda qo'llanilmoqda.

Tilshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan esa *ta'lim* (*education*) institutsional-ijtimoiy diskursga, *o'qish/o'rganish* (*learning*) esa shaxsiy-subyektiv kognitiv diskursga tegishlidir [16, b. 33]. Shuning uchun har ikki tildagi terminlar tizimini muvofiqlashtirishda ushbu semantik farqlarni hisobga olish ilmiy aniqlikni ta'minlaydi. Tahlil etilgan markaziy tushunchalarning o'zaro ierarxik, ya'ni giper-giponimik munosabatlari quyidagi konseptual-lisoniy model asosida izchil tizimlashtiriladi:

Diagramma 1. Masofaviy ta'lim konseptlarining ierarxik-semantik aloqalari tizimi



Ushbu strukturaviy masofaviy ta'lim konseptlarining ierarxik-semantik aloqalari tizimidan ko'rinadiki, **raqamli ta'lim** keng semantik ko'lamga ega bo'lgan konseptual ma'noni ifodalaydi. U ta'lim jarayonining jismoniy yoki virtual makonda bo'lishidan qat'i nazar, raqamli texnologiyalar ishtirokini anglatadi [9, b. 3]. Qolgan barcha tushunchalar uning giponimlari, ya'ni tor ma'noga ega turlari hisoblanadi. **Masofaviy ta'lim** makon va zamondagi uzoqlik belgisini ifoda etadi. **Onlayn ta'lim** ushbu uzoqlikni aynan internet tarmog'i orqali bartaraf etish usulini anglatadi [7, b. 40]. **Elektron ta'lim** esa internet tarmog'isiz ham mavjud bo'la oladigan har qanday elektron tashuvchilar va dasturiy vositalarni qamrab oladi [8, b. 28]. **Aralash va gibril ta'lim** modellari esa an'anaviy akademik diskurs bilan raqamli diskursning konvergentsiyasi (birlashishi) natijasida yuzaga kelgan murakkab, aralash xarakterdagi lingvistik-metodik tuzilmalardir [12, b. 14]. O'zbek tilidagi ilmiy-metodik adabiyotlarda *blended learning* va *hybrid learning* terminlarini farqlamay, har ikkisini "aralash ta'lim" deb xato tarjima qilish holatlari uchraydi. Biroq ularning lingvopragmatik va texnik asoslari mutlaqo farq qilishi yuqorida isbotlandi. *Hybrid learning* modelida real vaqtda kechadigan multimodal muloqotning vaqt determinanti (*temporal factor*) til birliklarining funksional-uslubiy xususiyatlarini belgilovchi eng asosiy lisoniy omildir. Shu asosda tizimda qat'iy antonimik va oppozitsion munosabatga ega bo'lgan **sinxron ta'lim** (real vaqtda, qisqa replikalar va interfeys buyruqlari faolligi bilan xarakterlanadi) hamda **asinxron ta'lim** (kechiktirilgan aloqa rejimi, kengaytirilgan yozma matnlar va grammatik to'liqlik bilan xarakterlanadi) shakllari farqlanadi [14, b. 53].

Atamashunoslik tizimimizni me'yorlashtirish, kiber-muhit lug'atlarini boyitish uchun ushbu birliklarning leksikografik variantligini va publitsistik uslub ta'siridagi chalkashliklarni bartaraf etish, o'zbek tili lug'atlarida ularning aniq semantik va ma'noviy doiralarini tavsiflash hamda tadqiq etish kerak [17, b. 12].

Xulosa. Xususan, tadqiqotimiz yakunida masofaviy ta'lim terminologik leksikasi shunchaki tasodifiy raqamli neologizmlar yoki texnik atamalar yig'indisi emasligi dalillandi. Shu bilan birga, leksik qatlamning tarkibiy birliklari o'zaro qat'iy ierarxik, giper-giponimik, sinonimik va antonimik munosabatlar bilan bog'langan, raqamli diskursning mega- va makrotuzilmalarini aks ettiruvchi yaxlit lingvistik mikrotizim sifatida baholanishi kerakligi aniqlandi. Bizning ilmiy kuzatishlarimizga ko'ra, *distance education*, *online education*, *digital education* va *e-learning* terminlarini mutlaq

sinonim sifatida qo'llash lisoniy jihatdan tubdan xatodir. Biz aniqlagan differensial-semantik belgilar shuni isbotlaydiki, ularning har biri muloqot makoni, global tarmoqqa bog'liqlik darajasi, axborotning texnik formati va tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra o'ziga xos konseptual va diskursiv ma'nolarga ega bo'lib, tillararo moslashtirish jarayonida alohida lisoniy muqobil birlikni tanlashni talab etadi.

Bundan tashqari, *blended learning* (aralash ta'lim) va *hybrid learning* (gibrid ta'lim) tushunchalari muloqot diskursining vaqt va makon konfiguratsiyasiga, shuningdek, lisoniy qisqaruv (nutqiy ellipsis) darajasiga ko'ra keskin farqlanishini aniqladik. Tadqiqotchi sifatida shuni alohida ta'kidlaymizki, aralash model asinxron elektron komponentlarning an'anaviy darsga tizimli qo'shilishini anglatga, gibrid model mutlaq murakkab multimodal sinxron muloqot muhitini — bir vaqtning o'zida ham real (offlayn), ham virtual (onlayn) talabalar jamoasi bilan ishlash jarayonini ifodalaydi hamda tarmoq muloqotida yuqori darajadagi sintaktik qisqarishlarni keltirib chiqaradi.

Tahlillarimiz natijasida o'zbek tili masofaviy ta'lim diskursida inglizcha neologizmlarni qabul qilish va konseptualizatsiya qilishda asosan ikki lisoniy mexanizmdan foydalanilayotganiga guvoh bo'ldik: to'g'ridan-to'g'ri leksik o'zlashtirish (gibrid, sinxron, asinxron, onlayn) va tizimli-semantik kalkalash (aralash ta'lim, masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim). Milliy terminologiyamizni me'yorlashtirish, kiber-muhit lug'atlarini boyitish uchun ushbu birliklarning leksikografik variantligini va publitsistik uslub ta'siridagi chalkashliklarni bartaraf etish, o'zbek tili lug'atlarida ularning aniq semantik va konseptual ma'nolarini qat'iy belgilash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allen I. E., Seaman J. Digital Learning Compass: Distance Education Price and Progress Report // Babson Survey Research Group. – Boston, 2017. – P. 12–25.
2. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 45–68.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 84–96.
4. Garrison D. R., Kanuka H. Blended Learning: Uncovering Its Transformative Potential in Higher Education // The Internet and Higher Education. – New York, 2004. – Vol. 7, No. 2. – P. 95–105.
5. Herring S. C. Faceted Classification for Computer-Mediated Discourse // Language@Internet. – Bloomington, 2007. – Vol. 4, No. 1. – P. 1–20.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonun. – Toshkent, 2020. – B. 4–12.
7. Moore M. G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. 3rd ed. – Boston: Cengage Learning, 2011. – P. 32–54.
8. Rosenberg M. J. E-Learning: Strategies for Delivering Knowledge in the Digital Age. – New York: McGraw-Hill, 2001. – P. 18–29.
9. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – Chicago, 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
10. Sodiqov Z. O'zbek tili internet diskursining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 42–49.
11. Satimova D. N. Ingliz va o'zbek tillarida substandart birliklarning kiberlug'atlardagi pragmatik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik jihatlari // Uz Conferences. – Toshkent, 2025. – Vol. 1, No. 2. – B. 12–28.
12. Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. – P. 3–21.
13. Beatty B. J. Hybrid-Flexible Course Design: Implementing Student-Directed Hybrid Classes. – EdTech Books, 2019. – P. 104–118.
14. Ashurova N. V. Turli tizimli tillarda kogeziyaning kontrastiv tadqiqi (ellipsis kesimida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qo'qon, 2025. – 55 b.
15. Yusupov O. Chog'ishtirma tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2022. – № 2. – B. 15–23.
16. Widdowson H. G. Discourse Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 33–51.
17. Mahmudov N. Til va madaniyat mutanosibliigi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 1. – B. 8–16.